QISHLOQ HUDUDLARIDA AGROBIZNES TUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI XORIJIY TAJRIBA VA UN DAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1115
<b>Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li</b>	
INFLYASIYA VA BUDJET XARAJATLARI: ASOSIY BOG'LIQLIKLAR.....	1118
<b>Izbosarov Bobur Baxriddinovich, Umirov Sherzod Baxriddinovich</b>	
KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	1124
<b>Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ.....	1128
<b>Уктамов Альберт Жасурович Bakirov Kobiljon Mamatyusupovich</b>	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ: СНИЖЕНИЕ РИСКОВ, УКРЕПЛЕНИЕ КАПИТАЛЬНОЙ БАЗЫ И ЛИБЕРАЛИЗАЦИЯ АКТИВОВ.....	1135
<b>Эгамова Махфурат Эсановна</b>	
ФАЗООБРАЗОВАНИЕ И ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МАГНИЕВОГО ОКСИХЛОРИДНОГО ЦЕМЕНТА, СИНТЕЗИРОВАННОГО ИЗ КАУСТИЧЕСКОГО ДОЛОМИТА.....	1141
<b>Абылова Амина, Сайпов Абат, Бекбосынова Рысгул, Абылов Женис</b>	
HUDUDLARDA MADANIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV USULLARI	1150
<b>Shohruzbek Ruziyev</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA SIRKULYAR IQTISODIYOT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	1156
<b>Xalikulova Gulzada Tojimuratovna, Kuziyeva Nargiza Ramazanovna</b>	
MARKAZIY OSIYODA SUN'IY INTELLEKTNING KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1162
<b>Kodirova Samira Kamol qizi</b>	



MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOIIY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI .....	1169
<b>Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li</b>	
RAQOBATBARDOSHLIK NAZARIYALARINING EVOLYUTSIYASI VA HUDUDIIY USTUNLIKLARINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	1175
<b>Sattorov Quvonchbek Shoxzamonovich</b>	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA ISTIQBOLLARI .....	1181
<b>Kazakova Zulayho, Saida'zamova Nilufar, Isroilov Shohruh</b>	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSPORT TIZIMI TRANSFORMATSIYASI ORQALI BARQAROR MAKROIQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ILMIIY-USLUBIIY ASOSLARI.....	1186
<b>Jalolova Madina Shopo'lat qizi</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ДИВИДЕНДНОЙ ПОЛИТИКИ В КОМПАНИЯХ УЗБЕКИСТАНА .....	1192
<b>Шермухамедов Акмал Комилжонович</b>	
KICHIK BIZNESDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY SAMARASI.....	1198
<b>Ergashev Jamshid Jamoliddinovich, Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi</b>	
KIYIM DIZAYNIDA ESTETIK VA FUNKSIONALLIK UYG'UNLIGI.....	1202
<b>Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna</b>	
K-SURE JANUBIIY KOREYA EKSPORTINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA ASOSIIY DAVLAT MUASSASASI SIFATIDA.....	1205
<b>Umarov Xasan Sunnatullaevich</b>	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RAQAMLI SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELII .....	1210
<b>To'rayeva Nafisa Odiljonovna</b>	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1215
<b>Astanayev Kulmaxammat Sanayevich</b>	
RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....	1221
<b>Jalolov Abbasxon Ravshanxon o'g'li</b>	



# RESURSGA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA SANOAT KORXONALARI RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

## Jalolov Abbasxon Ravshanxon o‘g‘li

Fan va texnologiyalar universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti v.b.,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada resurs yondashuvi (Resource-Based View — RBV) asosida sanoat korxonalarining barqaror raqobat ustunligini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi korxonalarining moddiy, moliyaviy, texnologik, insoniy va intellektual resurslaridan samarali foydalanish orqali uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta‘minlash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasining 2020-2024-yillardagi hududlar kesimidagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, fizik hajm indekslari hamda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ko‘rsatkichlari tizimli tahlil qilindi. Olingan natijalar sanoat korxonalarining raqobat ustunligi ko‘p jihatdan hududlarning mavjud resurs bazasi, innovatsion salohiyati va inson kapitali darajasiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Tadqiqot yakunida sanoat korxonalarida nomoddiy resurslarni rivojlantirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish, malakali kadrlar tayyorlash hamda VRIO modeli asosida resurslarni strategik boshqarish bo‘yicha amaliy xulosa va takliflar shakllantirildi.

**Kalit so‘zlar:** resurs yondashuvi, raqobat ustunligi, sanoat korxonalari, VRIO modeli, innovatsion resurslar, strategik boshqaruv, raqobatbardoshlik.

**Аннотация.** В данной статье исследованы вопросы формирования конкурентных преимуществ промышленных предприятий на основе ресурсного подхода (Resource-Based View — RBV). Основная цель исследования заключается в выявлении возможностей обеспечения устойчивого конкурентного преимущества путем эффективного использования материальных, финансовых, технологических, человеческих и интеллектуальных ресурсов предприятий. В ходе исследования был проведен системный анализ объемов производства промышленной продукции, индексов физического объема и показателей промышленного производства на душу населения в разрезе регионов Республики Узбекистан за 2020-2024-е годы. Полученные результаты продемонстрировали, что конкурентное преимущество промышленных предприятий в значительной степени зависит от существующей ресурсной базы регионов, их инновационного потенциала и уровня развития человеческого капитала. На основе результатов исследования сформулированы выводы и практические рекомендации по развитию нематериальных ресурсов на промышленных предприятиях, расширению инновационной деятельности, созданию научно-исследовательских центров, подготовке квалифицированных кадров и стратегическому управлению ресурсами на основе модели VRIO.

**Ключевые слова:** ресурсный подход, конкурентное преимущество, промышленные предприятия, модель VRIO, инновационные ресурсы, стратегическое управление, конкурентоспособность.

**Abstract.** This article investigates the issues of developing the competitive advantage of industrial enterprises based on the Resource-Based View (RBV) approach. The primary objective of the study is to identify opportunities for ensuring sustainable competitive advantage through the effective utilization of tangible, financial, technological, human, and intellectual resources of enterprises. In the course of the research, a systematic analysis of industrial production volumes, physical volume indices, and per capita industrial output indicators across the regions of the Republic of Uzbekistan for the period of 2020-2024 was conducted. The findings reveal that the competitive advantage of industrial enterprises heavily depends on the existing regional resource base, innovation potential, and the level of human capital. Based on the research outcomes, conclusions and practical recommendations are formulated for developing intangible resources in industrial enterprises, expanding innovation activities, establishing R&D centers, training qualified personnel, and strategically managing resources based on the VRIO framework.

**Keywords:** resource-based view, competitive advantage, industrial enterprises, VRIO model, innovative resources, strategic management, competitiveness.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda bozor munosabatlarining tobora murakkablashib borishi sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini

ta'minlash masalasini strategik ahamiyatga ega ustuvor vazifalardan biriga aylantirdi. Ayniqsa, zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalarining uzoq muddatli muvaffaqiyati nafaqat tashqi bozor omillariga moslashish darajasi, balki ularning ichki salohiyati, mavjud resurslaridan samarali foydalanish qobiliyati hamda noyob kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Shu bois, ko'plab tadqiqotlarda korxonalarining raqobat ustunligini shakllantirish omillarini aniqlashga qaratilgan turli nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida resurs yondashuvi (Resource-Based View — RBV) alohida o'rin egallaydi.

Resurs yondashuvi korxonaning raqobat ustunligini tashqi bozor sharoitlari yoki tarmoqdagi raqobat intensivligi bilan emas, balki uning egalik qilayotgan noyob, qimmatli, kamyob hamda taqlid qilinishi qiyin bo'lgan resurslari va imkoniyatlari bilan izohlaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, korxonalar barqaror raqobat ustunligiga erishishi uchun moddiy resurslardan tashqari intellektual kapital, innovatsion salohiyat, boshqaruv kompetensiyalari, inson kapitali, tashkilot madaniyati va texnologik bilimlar kabi nomoddiy resurslarni ham samarali boshqarishi zarur hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlarida sanoat korxonalari faoliyatining muvaffaqiyati tobora ko'proq bilimlar iqtisodiyoti, innovatsiyalar va intellektual resurslarga tayanmoqda. Korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari, moliyaviy mablag'lari yoki tabiiy resurslari muayyan vaqt davomida raqobat ustunligini ta'minlashi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatli istiqbolda aynan inson kapitali, ilmiy-tadqiqot faoliyati, texnologik innovatsiyalar va samarali boshqaruv tizimlari barqaror ustunlik manbai sifatida namoyon bo'ladi. Natijada korxonalar o'z resurslarini nafaqat jamlash, balki ularni muntazam rivojlantirish, integratsiyalash va yangi qiymat yaratishga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham sanoat tarmog'ini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xalqaro bozorlarda milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda respublikamizda sanoat korxonalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb etish hamda eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, ishlab chiqarish texnologiyalarining shiddat bilan yangilanishi va iste'molchilar talabining o'zgarib borishi korxonalardan mavjud resurslardan yanada samaraliroq foydalanishni talab etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, sanoat korxonalarining raqobat ustunligini shakllantirishda resurs yondashuvining imkoniyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Bunday sharoitda korxonalar resurslarini strategik boshqarish, ularning noyob jihatlari aniqlash va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Resurs yondashuvining afzalligi shundaki, u korxonaning ichki imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish orqali raqobat ustunligini yaratish manbalarini aniqlash imkonini beradi. Mazkur yondashuv doirasida resurslar moddiy, moliyaviy, texnologik, insoniy va tashkiliy guruhlariga ajratilib, ularning korxonalar faoliyati natijalariga ko'rsatadigan ta'siri baholanadi. Ayniqsa, zamonaviy sanoat korxonalarida intellektual mulk, innovatsion faoliyat, raqamli texnologiyalar va malakali kadrlar kabi resursshunoslik obyekti bo'lgan manbalarning strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli korxonalarining raqobat ustunligi ko'proq ushbu resurslarning oqilona kombinatsiyasi va ulardan foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, sanoat korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, innovatsion mahsulotlar ulushini ko'paytirish va bozor talablariga tez moslashish imkoniyati yaratiladi. Bu esa nafaqat korxonaning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi, balki uning milliy va xalqaro bozorlardagi raqobat pozitsiyasini ham kuchaytiradi. Shu jihatdan, resurs yondashuvi sanoat korxonalarining strategik rivojlanishini ta'minlashda muhim metodologik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi resurs yondashuvining nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilish, sanoat korxonalarining raqobat ustunligini shakllantirishda turli resurs guruhlarining o'rnini aniqlash hamda korxonalarining barqaror raqobatbardoshligini ta'minlash yo'nalishlarini tadqiq etishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarining raqobat ustunligini shakllantirish masalasi strategik menejment nazariyasining eng muhim va fundamental yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda korxonaning ichki resurslari, imkoniyatlari hamda kompetensiyalarining raqobatbardoshlikka ta'siri tizimli ravishda o'rganilgan. Ayniqsa, resurs yondashuvi (Resource-Based View — RBV) korxonalar muvaffaqiyatining tub manbai sifatida aynan noyob resurslar va qobiliyatlarni e'tirof etadi.

Xorijiy olimlardan Birger Wernerfelt [1] ilk bor korxonani mahsulotlar nuqtayi nazaridan emas, balki bevosita resurslar pozitsiyasidan tahlil qilish g'oyasini ilgari surgan. Muallif korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyati uning egalik qilayotgan resurslari hamda ulardan foydalanish strategiyasiga bevosita bog'liqligini asoslab



bergan. B. Wernerfelt resurslarni korxonaning kuchli va zaif tomonlarini ifodalovchi asosiy omil sifatida talqin qilgan hamda “resource position barrier” (resurs pozitsiyasi to‘sig‘i) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. Ushbu yondashuv keyinchalik resurs yondashuvi nazariyasining shakllanishiga fundamental asos bo‘lib xizmat qildi.

Jay Barney [2] resurs yondashuvini yanada rivojlantirib, korxonaning barqaror raqobat ustunligi qimmatli, kamyob, taqlid qilinishi qiyin hamda o‘rni bosuvchi muqobili bo‘lmagan strategik resurslar orqali shakllanishini ta’kidlagan. Mazkur konseptual model keyinchalik VRIN modeli nomi bilan strategik menejment nazariyasining asosiy konsepsiyalaridan biriga aylandi.

Margaret Peteraf [3] raqobat ustunligining iqtisodiy mohiyatini o‘rganib, korxonalarning yuqori rentabelligini ta’minlovchi strategik resurslar bozor nomukammalligi, resurslarning cheklanganligi hamda ularning mobilligi (harakatchanligi) pastligi bilan bog‘liqligini asoslagan. Uning tadqiqotlari resurslarning iqtisodiy renta yaratishdagi rolini chuqur ochib beradi.

Robert Grant [4] korxonaning strategiyasini shakllantirishda resurs va imkoniyatlar markaziy o‘rin tutishini ta’kidlab, strategik tahlilning resurslarga asoslangan modelini ishlab chiqqan. Muallif korxonaning moddiy va nomoddiy resurslari o‘rtasidagi oqilona integratsiya raqobat ustunligini belgilovchi bosh omil ekanligini ko‘rsatib bergan.

C.K. Prahalad va Gary Hamel korxonaning “asosiy kompetensiyalari” konsepsiyasini ilgari surganlar [5]. Ularning fikricha, raqobat ustunligi alohida olingan resurslar emas, balki korxonada ichidagi bilim, tajriba hamda texnologik imkoniyatlarning tizimli uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi.

David Teece, Gary Pisano va Amy Shuen [6] dinamik qobiliyatlar nazariyasini ishlab chiqib, korxonaning tez o‘zgaruvchan bozor sharoitlarida resurslarni muntazam yangilash va qayta shakllantirish qobiliyati raqobat ustunligining muhim manbai ekanligini asoslaganlar. Ularning tadqiqoti RBV nazariyasining rivojlanishida yangi intellektual bosqichni boshlab berdi.

Jay Barney, Patrick Wright va David Ketchen [7] resurs yondashuvining o‘n yillik rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, ushbu nazariya strategik menejmentdagi eng ta’sirchan konsepsiyalardan biriga aylanganini qayd etganlar. Mualliflar kelgusida inson kapitali, innovatsiyalar va bilimlarga asoslangan nomoddiy resurslarning ahamiyati yanada ortishini alohida ta’kidlaydilar.

Andy Lockett, Reddi O’Shea va Mike Wright [8] B. Wernerfeltning ilmiy qarashlarini qayta tahlil qilib, resurs yondashuvi korxonalar o‘rtasidagi samaradorlik va raqobatbardoshlik tafovutlarini tushuntirishda eng mukammal nazariyalardan biri vaqtinchalik ekanligini ko‘rsatib berganlar.

Sergio Olavarrieta [9] RBV yondashuvini M. Porterning tarmoq nazariyasi bilan taqqoslab, korxonaning ichki resurslari ko‘plab hollarda tashqi bozor omillariga nisbatan ustun va barqaror ahamiyat kasb etishini ilmiy jihatdan asoslagan.

Rogan Wetering, Patrick Mikalef va Adamantia Pateli [10] raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari moslashuvchanligi hamda dinamik qobiliyatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq etib, raqamli resurslarning korxonada raqobatbardoshligini oshirishdagi strategik rolini yoritganlar.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A. O‘lmasov va A. Vahobov [11] iqtisodiy raqobatning nazariy asoslarini tadqiq etib, korxonalarning ichki resurs salohiyati hamda innovatsion rivojlanish omillari bozor ustunligini ta’minlashini ko‘rsatganlar. Shuningdek, Sh. Shodmonov, U. G‘afurov va M. Boltaboyev kabi olimlar tomonidan sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv hamda texnologik modernizatsiya masalalari o‘rganilib, innovatsion resurslar raqobat ustunligini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri ekanligi alohida ta’kidlangan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarining raqobat ustunligini resurs yondashuvi doirasida baholash va tahlil qilish uchun tizimli usullar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini resurs yondashuvi, dinamik qobiliyatlar nazariyasi hamda strategik boshqaruv konsepsiyalari tashkil etadi.


Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik tahlil hamda iqtisodiy taqqoslash usullari samarali qo‘llanildi. Mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari atroflicha o‘rganilib, sanoat korxonalarining raqobat ustunligini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tasniflandi hamda tizimlashtirildi.

Empirik tahlillar uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2020-2024-yillarga oid rasmiy ma’lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi hamda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari tizimli tahlil qilindi. Ushbu statistik ma’lumotlar asosida hududlararo tarkibiy tafovutlar aniqlanib, mavjud resurs salohiyatining barqaror raqobat ustunligiga aylanish darajasi baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Resurs yondashuvi (Resource-Based View — RBV) iqtisodiy nazariyasiga ko'ra, sanoat korxonalarining barqaror raqobat ustunligi ularning ichki resurslari, o'ziga xos strategik salohiyati (capabilities) hamda ushbu resurslarni hududiy miqosda qay darajada samarali va oqilona taqsimlay olishiga bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi hududlarining sanoat salohiyati dinamikasini tizimli tahlil qilish korxonalarining moddiy, tabiiy va inson kapitali resurslaridan foydalanish samaradorligini aniq baholash imkonini beradi.

2020-2024-yillar oralig'ida respublikamizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmi keskin o'sgan bo'lsa-da, hududlar kesimidagi tarkibiy nomutanosiblik hali ham saqlanib qolmoqda. Mazkur holat har bir hududning mavjud resurs bazasi (xomashyo manbalari, infratuzilma ta'minoti hamda investitsiyalarni jalb qilish qobiliyati) turlicha ekanligidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining hududiy dinamikasi (mlrd so'm)<sup>®</sup>

1-rasmda keltirilgan tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmining salmoqli qismi Toshkent shahri (171,7 trln so'm), Navoiy viloyati (145,6 trln so'm) va Toshkent viloyati (138,5 trln so'm) hissasiga to'g'ri kelgan. Resurs yondashuvi (RBV) nuqtayi nazaridan yondashilganda, ushbu yetakchi hududlarda joylashgan korxonalar o'ziga xos strategik resurslar va yuqori salohiyatga tayanadi. Xususan, Navoiy viloyatida noyob hamda keng qamrovli tabiiy-mineral resurslar bazasi va yirik tog'-kon sanoati klasterlari ustuvor ahamiyat kasb etsa, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida yuqori malakali inson kapitali, innovatsion resurslar, jozibador moliyaviy oqimlar hamda qulay logistika infratuzilmasi jamlangan. Aksincha, Surxondaryo (13,8 trln so'm) va Jizzax (24,9 trln so'm) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmining nisbatan pastligi ushbu hududlardagi korxonalarda mavjud ichki resurslarni barqaror raqobat ustunligiga aylantirish transformatsiyasi (VRIO — Value, Rarity, Inimitability, Organization) darajasi hali ham yetarli emasligidan dalolat beradi. Shuningdek, ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi sanoat korxonalarining resurslardan ekstensiv omillar hisobiga emas, balki texnologik yangilanish va yuqori unumdorlikka asoslangan intensiv usullarda foydalanish qobiliyatini yaqqol aks ettiradi (2-rasm).



2-rasm. Hududlarda sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o'zgarishi, foizda<sup>®</sup>

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Jizzax viloyatida 2020-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 118,4% ni tashkil etgan bo'lsa, Andijon viloyatida 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 122,8% gacha ko'tarilgan. Mazkur holat o'rganilayotgan yillarda hududiy sanoat korxonalariga yangi strategik resurslarning (xususan, avtomobilsozlik tarmog'ida zamonaviy texnologiyalar va xorijiy investitsiyalarning) jadal kirib kelganligi hamda ushbu manbalardan qisqa muddatda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilganligini tasdiqlaydi. 2024-yilga kelib esa respublika bo'yicha o'rtacha o'sish indeksi 106,5% darajasida barqarorlashgan.

Resurs yondashuvida inson kapitali va mehnat resurslarining ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasi fundamental mezonlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi hududiy sanoat korxonalarining haqiqiy raqobatbardoshlik darajasini yanada aniqroq va yaqqolroq aks ettiradi (1-jadval).

#### 1-jadval

#### Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (ming so'm)<sup>1</sup>

	2020	2021	2022	2023	2024
O'zbekiston Respublikasi	10771,8	13061,9	15520,2	18098	23679,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7316	8589,6	8981,4	8942,7	12064
Andijon viloyati	11519,2	11156,6	16529,9	21964	26439,6
Buxoro viloyati	9080,1	10587,4	13647,2	15719	20501,3
Jizzax viloyati	4170,8	6253,4	7812,5	12871,5	16357,3
Qashqadaryo viloyati	4417,4	5567,2	6566,7	8169,2	10865,8
Navoiy viloyati	64737,5	71925,7	80786,1	95593,6	134209
Namangan viloyati	3878,7	5068,6	6112,9	7225,6	10228,2
Samarqand viloyati	4698,6	5723,6	7163,2	7915,6	10676,7
Surxondaryo viloyati	2004,8	2461,4	2605,5	3113,7	4746,9
Sirdaryo viloyati	9361,5	11282,8	13532,3	16953,5	21751,7
Toshkent viloyati	22356,3	28622,3	31664,5	35371,9	44983,4
Farg'ona viloyati	5732	7195,5	7698,4	8906,7	11185,8
Xorazm viloyati	5009,6	7155,5	9439,5	10921	14120,6
Toshkent shahri	25052,6	31976,2	37398,7	41391,6	55807,3

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Navoiy viloyatida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 134 209,0 ming so'mni tashkil etib, O'zbekiston Respublikasi — 23679,4 ming so'm deyarli 5,7 barobar yuqori natijani qayd etgan. Binobarin, Navoiy viloyatida aholi soniga nisbatan sanoat

<sup><?></sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tuzildi.

resurslarining konsentratsiyasi nihoyatda yuqoridir. Biroq ushbu raqobat ustunligi hozirgi bosqichda asosan “tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik” (resource endowment) omili hisobiga shakllangan. Resurs yondashuvi nuqtayi nazaridan, barqaror raqobat ustunligini uzoq muddatli istiqbolda saqlab qolish uchun Navoiy viloyati korxonalariga kelgusida o’zlarining nomoddiy resurslarini (nou-xau, raqamli texnologiyalar, innovatsion boshqaruv tizimlari) yanada jadal rivojlantirishlari lozim. Zero, kelajakda an’anaviy resurslar ko’lamining o’zgarishi yoki jahon bozorlarida xomashyo narxlarini kon’yunkturasi tebranishi sharoitida aynan nomoddiy aktivlar korxonalarining barqaror raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy drayverga aylanadi.

Surxondaryo viloyatida esa aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 746,9 ming so’mni tashkil etmoqda. Mazkur ko’rsatkich hududda mehnat resurslari salmoqli bo’lishiga qaramay, ularni yuqori sanoat unumdorligiga transformatsiya qiluvchi texnologik hamda institutsional resurslarni jalb etish va rivojlantirish salohiyati hali nihoyatda yuqoriligidan dalolat beradi. Olib borilgan tizimli tahlil natijalari asosida respublika sanoat korxonalarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va barqaror raqobat ustunligini shakllantirishning strategik yo’nalishlarini taklif etish mumkin (2-jadval).

## 2-jadval

### Sanoat korxonalariga resurslarini raqobat ustunligiga aylantirish strategiyalari (RBV asosida)<sup>2</sup>

Resurs turi	Hududiy holat	Raqobat ustunligini shakllantirish yo’li
<b>Tabiiy va moddiy resurslar</b>	Navoiy va Toshkent viloyatlarida resurslar salohiyati yuqori, boshqa hududlarda nisbatan cheklangan.	Xomashyoni eksport qilishdan ko’ra chuqur qayta ishlash klasterlarini rivojlantirish, yuqori qo’shilgan qiymat yaratish va VRIO modelining “Qiymat (Value)” mezonini ta’minlash.
<b>Inson kapitali va intellektual resurslar</b>	Toshkent shahrida malakali kadrlar ulushi yuqori. Surxondaryo va Namangan viloyatlarida mehnat resurslari ko’p bo’lsa-da, malaka darajasi nisbatan past.	Hududlarda “Sanoat 4.0” talablariga mos muhandis-texnik mutaxassislarini tayyorlash, kasbiy ta’lim va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish orqali resurslar unumdorligini oshirish.
<b>Texnologik va innovatsion resurslar</b>	Jizzax va Andijon viloyatlarida sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksidagi o’zgaruvchanlik texnologik qaramlik mavjudligini ko’rsatadi.	Korxonalarda ichki ilmiy-tadqiqot (R&D) markazlarini tashkil etish, xorijiy texnologiyalarni o’zlashtirishdan innovatsion va takrorlanishi qiyin (Inimitability) texnologiyalar yaratishga o’tish.

O’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, O’zbekiston sanoatida korxonalarining raqobat ustunligi hozirgi bosqichda ko’proq hududiy ekstensiv resurslarga (tabiiy boyliklar va ishchi kuchi soniga) tayanadi.

Barqaror va uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirish uchun sanoat siyosati korxonalarining nomoddiy resurslarini (innovatsiyalar, intellektual mulk, branding va raqamli boshqaruv ko’nikmalari) rivojlantirishga yo’naltirilishi lozim. Bu esa resurslar taqsimotidagi disproporsiyani kamaytirib, barcha hududlarda sanoat mahsulotlari fizik hajmi va aholi jon boshiga ishlab chiqarish samaradorligining barqaror o’sishini ta’minlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy iqtisodiy sharoitda sanoat korxonalarining barqaror va uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishda resurs yondashuvi (Resource-Based View — RBV) alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvga ko’ra, korxonaning muvaffaqiyati nafaqat tashqi bozor kon’yunkturasi, balki uning egalik qilayotgan strategik resurslari hamda ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga ham bevosita bog’liqdir. Ayniqsa, qimmatli, kamyob, taqlid qilinishi qiyin va tizimli boshqariladigan resurslar korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashning fundamental manbai hisoblanadi.

Tadqiqot davomida O’zbekiston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi ko’rsatkichlari tahlil qilinib, sanoat salohiyatining hududiy miqyosda sezilarli darajada farqlanishi aniqlandi. Xususan, Navoiy viloyati, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqoriligi ushbu hududlarda strategik resurslar, zamonaviy infratuzilma, investitsiyaviy faollik hamda yuksak inson kapitalining yuqori darajada jamlanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda mavjud resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini yanada oshirish sanoat korxonalarining raqobat ustunligini shakllantirish uchun yangi strategik imkoniyatlar eshigini ochadi.

Olib borilgan tizimli tahlillar natijasida aniqlanishicha, respublika sanoatida raqobat ustunligi hozirgi bosqichda asosan tabiiy resurslar, an’anaviy ishlab chiqarish quvvatlari va mehnat resurslari kabi bazaviy omillarga tayanmoqda. Biroq global iqtisodiyotda raqobatning tobora kuchayishi, texnologik yangilanish sur’atlarining shiddat bilan ortishi hamda innovatsiyalar ahamiyatining yuksalishi korxonalaridan nomoddiy aktivlarga ko’proq e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Shu sababli sanoat korxonalarining kelgusidagi barqaror

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi.



rivojlanishi innovatsion salohiyat, intellektual kapital, raqamli texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati (R&D) hamda ilg'or boshqaruv kompetensiyalarini tizimli yuksaltirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqot xulosalariga tayanib, sanoat korxonalarining raqobat ustunligini kuchaytirishga qaratilgan quyidagi muhim amaliy tavsiyalar ilgari surildi. Birinchidan, xomashyo resurslariga boy hududlarda chuqur qayta ishlash zanjiriga asoslangan sanoat klasterlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'lib, bu mahsulotning qo'shilgan qiymatini oshirish va eksport salohiyatini tubdan kengaytirish imkonini beradi. Ikkinchidan, hududlarda zamonaviy sanoat va bozor talablariga mos muhandis-texnik mutaxassislarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur. Uchinchidan, korxonalarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini (ITTI) rivojlantirish, ichki innovatsion markazlarni tashkil etish hamda yangi texnologiyalar yaratishga yo'naltirilgan investitsiyalar ko'lamini kengaytirish lozim. To'rtinchidan, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish orqali korxonalarining tashkiliy-boshqaruv samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, resurs yondashuvini amaliyotga keng joriy etish O'zbekiston sanoat korxonalarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga, hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarni minimallashtirishga hamda sanoat tarmog'ining innovatsion va barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wernerfelt, B. (1984). The Resource-Based View of the Firm. *Strategic Management Journal*, 5, 171-180. <https://doi.org/10.1002/smj.4250050207>.
2. Barney, J. B. (1991). "Firm Resources and Sustained Competitive Advantage," *Journal of Management*, Vol. 17, No. 1, pp. 99-120. doi:10.1177/014920639101700108.
3. Peteraf, M. A. (1993). The Cornerstones of Competitive Advantage: A Resource-Based View. *Strategic Management Journal*, 14, 179-191. <http://dx.doi.org/10.1002/smj.4250140303>.
4. Grant, R. M. (1991). "The Resource-Based Theory of Competitive Advantage: Implications for Strategy Formulation," *California Management Review*, Vol. 33, No. 3, pp. 114-135.
5. Prahalad, C. K. and Hamel, G. (1990). The Core Competence of the Corporation. *Harvard Business Review*, 79-91.
6. Teece, D. J., Pisano, G. and Shuen, A. (1997). Dynamic capabilities and strategic management. *Strat. Mgmt. J.*, 18: 509-533. [https://doi.org/10.1002/\(SICI\)1097-0266\(199708\)18:7<509::AID-SMJ882>3.0.CO;2-Z](https://doi.org/10.1002/(SICI)1097-0266(199708)18:7<509::AID-SMJ882>3.0.CO;2-Z).
7. Barney, J., Wright, M., & Ketchen Jr., D. J. (2001). The resource-based view of the firm: Ten years after 1991. *Journal of Management*, 27(6), 625-641.
8. Lockett, A., O'Shea, R. P., & Wright, M. (2008). The Development of the Resource-based View: Reflections from Birger Wernerfelt 1. August, *Organization Studies*, 29(8-9): 1125-1141. DOI: 10.1177/0170840608094773.
9. Sergio Olavarrieta Soto. (1995). The Resource-Based View Approach: Synthesis. *Estudios de Administración*, Vol. 2, No. 2. <https://doi.org/10.5354/0719-0816.1995.56699>.
10. Rogier van de Wetering, Patrick Mikalef & Adamantia Pateli. (2018). "Strategic Alignment Between IT Flexibility and Dynamic Capabilities: An Empirical Investigation," *International Journal of IT/Business Alignment and Governance (IJITBAG)*, IGI Global Scientific Publishing, vol. 9(1), pages 1-20, January.
11. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
12. Abbosxon Jalolov. (2026). Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tasnifi. "Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot" *Jurnali*, 4(4), 13-18. <https://doi.org/10.5281/zenodo.20020163>.
13. Abbosxon Jalolov. (2025). Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning zamonaviy konseptual mexanizmlari. *Muhandislik va iqtisodiyot*, Vol. 3, No. 10. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17507804>.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)